SUN'IY INTELLEKTNI TARTIBGA SOLISHDA RIVOJLANGAN DAVLATLAR QONUNCHILIGI TAHLILI

Xushnazar Jo'rayev
Toshkent davlat yuridik universiteti,
Huquq va texnologiyalar sho'basi o'qituvchisi
Elektron pochta manzili: juraevkhushnazar@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada sun'iy intellektni tartibga solish bo'yicha besh yetakchi davlat — Yevropa Ittifoqi, Janubiy Koreya, AQSh, Yaponiya va Xitoy — qonunchiligi qiyosiy tahlil qilingan. Har bir davlat sun'iy intellektni qanday nazorat qilishni tanlagani, bu tanlov nimaga asoslanganligi va amaliyotda qanday natija berayotgani ko'rsatilgan: Yevropa Ittifoqi tizimning xavf darajasiga qarab qattiq talablar joriy etsa, Janubiy Koreya yumshoq va rag'batlantiruvchi yo'lni tanlagan, AQSh shtatlari (Kolorado, Kaliforniya, Illinoys) bir-biridan farqli uchta yechim qo'llagan, Xitoy esa alohida qonun o'rniga ma'muriy reglamentlar orqali qat'iy nazorat o'rnatgan. Yondashuvlar tubdan farq qilsa-da, ularning barchasida uchta umumiy unsur borligi aniqlandi: shaffoflik talabi, sun'iy intellekt yordamida yaratilgan kontentni majburiy markirovka qilish va muhim qarorlarda inson nazoratining saqlanishi lozimligi qonunchilikda mustahkamlab qo'yildi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, SI tizimi ta'minotchisi, foydalanuvchi, avtomatlashtirilgan qaror, inson nazorati, shaffoflik, sun'iy kontentni belgilash, tushuntirish olish huquqi.

АНАЛИЗ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА РАЗВИТЫХ СТРАН В СФЕРЕ РЕГУЛИРОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

Аннотация: В статье проведен сравнительный анализ законодательства пяти ведущих юрисдикций — Европейского Союза, Южной Кореи, США, Японии и Китая — в области регулирования искусственного интеллекта. Показано, как каждая страна строит контроль над искусственным интеллектом, на чем основан этот выбор и к каким практическим результатам он приводит: Европейский Союз вводит жесткие требования в зависимости от уровня риска системы, Южная Корея выбрала гибкий и стимулирующий подход, штаты США (Колорадо, Калифорния, Иллинойс) применили три различных решения, а Китай установил строгий контроль через административные регламенты вместо отдельного закона. Несмотря на коренные различия в подходах, выявлены три общих элемента, зафиксированных в законодательстве: требование прозрачности, обязательная маркировка контента, созданного искусственным интеллектом, и необходимость сохранения человеческого контроля при принятии важных решений.

Ключевые слова: искусственный интеллект, провайдер системы ИИ, пользователь, автоматизированное решение, человеческий контроль, прозрачность, маркировка искусственного контента, право на получение объяснений.

ANALYSIS OF LEGISLATION ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE REGULATION OF DEVELOPED COUNTRIES

Abstract: The article presents a comparative analysis of the legislation of five leading jurisdictions — the European Union, South Korea, the United States, Japan, and China — regarding the regulation of artificial intelligence. It examines how each jurisdiction chooses to regulate artificial intelligence, the rationale behind these choices, and their practical outcomes: while the European Union introduces strict requirements based on the system's risk level, South Korea has opted for a flexible and encouraging path, US states (Colorado, California, Illinois) have applied three distinct solutions, and China has established strict control through administrative regulations rather than a standalone law. Although the approaches differ fundamentally, three common elements were identified as enshrined in legislation: transparency requirements, mandatory labeling of AI-generated content, and the necessity of maintaining human oversight in critical decision-making.

Keywords: artificial intelligence, AI system provider, user, automated decision, human oversight, transparency, AI content labeling, right to explanation.

KIRISH

Sun'iy intellekt (keyingi o'rinlarda — SI) bilan bog'liq huquqiy masalalar bugungi kunda uchta savolga borib taqaladi. Birinchisi savol: algoritm ishtirokida qabul qilingan qaror inson huquqlarini buzsa, kim javobgar bo'ladi? Ikkinchisi shaxs o'ziga nisbatan qaror qabul qilishda SI ishtirok etganini bilishi kerakmi? Uchinchisi esa SI qabul qilgan qarorni inson qayta ko'rib chiqishi shartmi?

So'nggi ikki yilda bir necha davlat bu savollarga o'z javobini qonun darajasida mustahkamlab qo'ydi. Javoblar esa bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Yevropa Ittifoqi (keyingi o'rinlarda — YeI) batafsil va qat'iy talablar tizimini yaratdi. Janubiy Koreya ancha yumshoq, rag'batlantirishga moyil qonun qabul qildi. Yaponiya umuman jazo choralarini nazarda tutmadi. Xitoy alohida qonun o'rniga ma'muriy qoidalar to'plamini shakllantirdi. Amerika Qo'shma Shtatlarida (keyingi o'rinlarda — AQSh) esa yagona federal qonun qabul qilinmadi va muammo shtatlar qonunchiligi orqali hal etilmoqda. Ushbu maqolada mazkur beshta yondashuvning eng muhim normalari ko'rib chiqiladi. Maqolaning asosiy maqsadi barcha moddalarni sanab o'tish emas, balki har bir davlat qanday tanlov qilgani va bu tanlov ortida qanday mulohaza yotganini hamda ushbu tanlovlar qanchalik o'z samarasini berganini ko'rsatish.

1. Yevropa Ittifoqi: xavf darajasiga qarab tartibga solish

YeI qonunchiligini to'g'ri tushunish uchun bir jihat yodda saqlanishi lozim: YeI hujjatida majburiyat yuklanadigan ikki asosiy shaxs bor. Birinchisi - tizimni yaratib, o'z nomi ostida bozorga chiqaradigan shaxs, ikkinchisi - tizimni o'z faoliyatida qo'llaydigan tashkilot. Maqolada birinchisi SI tizimi ta'minotchisi, ikkinchisi SI tizimidan foydalanuvchi deb yuritiladi. Tizim natijasi ta'sir qiladigan jismoniy shaxs esa oddiygina "shaxs" deb ataladi.

YeIning 2024/1689-sonli Reglamenti dunyodagi birinchi yaxlit SI'ni tartibga soluvchi qonuni hisoblanadi[1]. Uning asosiy g'oyasi talablar hajmi texnologiyaning murakkabligiga emas, u qo'llanadigan sohaga bog'lanadi. Masalan, shifoxonada bemorga tashxis qo'yuvchi SI asosida ishlaydigan tizim inson salomatligiga bevosita ta'sir qilgani uchun unga juda qattiq xavfsizlik talablari qo'yiladi, ammo pochtadagi spam-filtr kabi oddiy dasturlar yengillashtirilgan tartibda nazorat qilinadi.

Reglamentga muvofiq, sun'iy intellekt tizimiga muayyan darajadagi avtonomlikka ega bo'lgan hamda kiruvchi ma'lumotlar asosida mantiqiy xulosa chiqarish orqali bashorat, kontent, tavsiya yoki qaror ko'rinishida atrofdagi muhitga ta'sir ko'rsatuvchi natijalarni shakllantiruvchi tizim sifatida ta'rif beriladi. Ushbu huquqiy ta'rifning markaziy elementi **"xulosa chiqarish"** qobiliyati hisoblanadi. Aynan ushbu mezon SI tizimlarini qat'iy belgilangan algoritmlar hamda qoidalar asosida ishlaydigan an'anaviy dasturlar va oddiy hisob-kitob vositalaridan ajratib turganligi sababli ularni reglament doirasidan tashqarida qoldiradi, ya'ni tatbiq etilmaydi. Biroq ilmiy adabiyotlarda ushbu ta'rif o'ta keng qamrovliligi sababli tanqidga uchramoqda, chunki bunday umumiylik ba'zi oddiy matematik va statistik modellarning ham bilvosita ushbu qonun ta'siri ostiga tushib qolishiga zamin yaratishi mumkin[2].

Yevropa Ittifoqining Reglamentida sun'iy intellekt tizimlari ularning xavflilik darajasiga ko'ra to'rtta asosiy guruhga bo'linadi. Ular orasida birinchi guruhda SI qo'llanilishi **to'liq taqiqlangan**. Ushbu guruhni inson huquq va erkinliklariga bevosita tahdid soluvchi tizimlar tashkil etadi. Mazkur taqiqlarga shaxsning ong ostiga yashirin ta'sir ko'rsatish orqali uning xulq-atvorini manipulyatsiya (boshqarish) qilish, inson zaifliklaridan g'arazli foydalanish, fuqarolarni ularning xatti-harakatlariga qarab ijtimoiy baholash (social scoring) hamda shaxsiy xususiyatlarigagina tayanib jinoyat sodir etish ehtimolini oldindan bashorat qilish kabilar kiradi. Shuningdek, internet platformalaridan yuz tasvirlarini tartibsiz va ommaviy yig'ish orqali biometrik ma'lumotlar bazasini shakllantirish, ish joyi hamda ta'lim muassasalarida insonlarning his-tuyg'ularini kuzatish va biometrik belgilarga ko'ra shaxsning irqi yoki e'tiqodini identifikatsiyalash ham birinchi guruhda bo'lib qonunga xilof deb topilgan. Ta'kidlash joizki, ushbu taqiqlar ro'yxati shunchaki gipotezalar mahsuli bo'lmay, ularning har biri Yevropa va boshqa mamlakatlar amaliyotida allaqachon namoyon bo'lgan real xavf-xatarlarni bartaraf etishga qaratilgan huquqiy reaksiyadir.

Reglamentga ko'ra, ikkinchi guruhni **yuqori xavfli tizimlar** (high-risk AI systems) tashkil etadi. Bu toifaga ta'lim, kadrlarni saralash va ishga qabul qilish, bank-moliya, tibbiyot, huquqni muhofaza qilish, migratsiya hamda sudlov faoliyatida qo'llaniladigan sun'iy intellekt tizimlari kiradi. Mazkur tizimlardan foydalanish taqiqlanmaydi, biroq ular bozorga chiqarilishi va amaliyotga tatbiq etilishidan oldin bir qator qat'iy huquqiy hamda texnik talablarga javob berishi lozim. Xususan, bunday tizimlar yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlar muntazam ravishda baholab borilishi, ularni o'qitish uchun ishlatiladigan ma'lumotlar sifatli va vakillik

[1] Regulation (EU) 2024/1689 of the European Parliament and of the Council of 13 June 2024 laying down harmonised rules on artificial intelligence (Artificial Intelligence Act). OJ L, 2024/1689, 12.7.2024.

[2] Veale M., Zuiderveen Borgesius F. Demystifying the Draft EU Artificial Intelligence Act — Analysing the good, the bad, and the unclear elements of the proposed approach // Computer Law Review International. 2021. Vol. 22, No. 4. P. 97–112.

xususiyatiga ega bo‘lishi hamda ulardagi noxolislik (bias) omillari atroflicha tekshirilishi lozim. Shuningdek, tizimning texnik hujjatlari to‘liq yuritilishi, ish jarayonlari avtomatik ravishda qayd etilishi, foydalanuvchilarga imkoniyat va cheklovlarni tushuntiruvchi yo‘riqnomalar taqdim etilishi hamda tizim inson nazorati (human oversight) imkoniyati saqlanib qolgan holda loyihalashtirilishi talab etiladi. Ushbu kompleks mexanizmlar yuqori xavfli SI tizimlarining jamiyat uchun xavfsizligini, shaffofligini va inson huquqlariga mosligini ta’minlashga xizmat qiladi. Oxirgi eng muhim talablardan biri ham keltirib o‘tilishi kerak. Reglament inson nazoratini shunchaki tashkiliy chora deb emas, tizimning texnik xususiyati deb qaraydi. Nazorat qiluvchi xodim tizim natijasini to‘g‘ri tushuna olishi, tizim chiqargan javobga o‘ylamasdan ishonib qolish xavfidan xabardor bo‘lishi va zarur bo‘lganda tizimni to‘xtata olishi kerak. Ya’ni “inson qaror qabul qiladi” degan yozuv qog‘ozda qolmasligi, tizimning o‘zida shu imkoniyat ta’minlanishi shart.

Reglamentning uchinchi guruhiga kiruvchi tizimlar uchun faqatgina shaffoflik (transparency) talablari belgilangan. Unga ko‘ra, inson bilan muloqot qiluvchi SI tizimlari o‘zining sun’iy ong ekanligini xabardor qilishi, shuningdek, algoritmlar yordamida yaratilgan audio, tasvir va video materiallar tegishlicha markirovka qilinishi lozim. Ayniqsa, reallikda mavjud shaxs qiyofasi yoki ovozi asosida yaratilgan sintetik kontent (deepfake) haqida foydalanuvchiga aniq axborot berilishi shart. To‘rtinchi guruhni esa qolgan barcha minimal xavfli tizimlar tashkil etib, ularga nisbatan hech qanday qo‘shimcha huquqiy majburiyatlar yuklanmaydi.

Reglamentda huquqiy javobgarlik va majburiyatlar SI tizimi ta’minotchisi (provider) hamda undan foydalanuvchi (deployer) o‘rtasida aniq taqsimlanadi. Ta’minotchi tizimni qonunchilik standartlariga muvofiq yaratish va texnik jihatdan hujjatlashtirish uchun mas’ul bo‘lsa, foydalanuvchi uni yo‘riqnomaga muvofiq ishlatish, jarayon ustidan malakali nazorat o‘rnatish, kiritilayotgan ma’lumotlar aniqligini ta’minlash hamda SI ishtirokida qaror qabul qilinadigan shaxslarni bu haqida ogohlantirishga majbur. Amaliy nuqtai nazardan eng muhim huquqiy qoidalardan biri shundaki, agar tashkilot o‘zga subyekt tomonidan yaratilgan tizimni o‘z nomi ostida bozorga chiqarsa, u huquqiy jihatdan ta’minotchi maqomini oladi va barcha tegishli majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladi. Bu norma tayyor xorijiy modellarni o‘z nomi bilan qayta sotish amaliyotida javobgarlik zanjiri uzilib qolishining oldini oladi.

Davlat organlari, davlat xizmatlarini ko‘rsatuvchi tashkilotlar, shuningdek kredit va sug‘urta sohasidagi kompaniyalar uchun qo‘shimcha talablar bor. Ular tizimni ishlatishdan oldin uning inson huquqlariga ta’sirini baholab, natijani hujjatlashtirishi kerak. Bunday baholash institutini tadqiqotchilar shaxsiy ma’lumotlar sohasidagi ta’sirni baholash tajribasining keyingi ko‘rinishi deyishimiz mumkin[3].

Shaxsga ikki huquq beriladi: nazorat organiga shikoyat qilish va yuqori xavfli tizim natijasi asosida qabul qilingan qaror yuzasidan tushuntirish olish. Ikkinchi huquq shaxsiy ma’lumotlar

[3] Kaminski M.E., Malgieri G. Algorithmic Impact Assessments under the GDPR: Producing Multi-layered Explanations // International Data Privacy Law. 2021. Vol. 11, No. 2. P. 125–159.

sohasidagi mavjud normalarni to‘ldiradi, ammo yuridik adabiyotda uning chegaralari yetarlicha aniq emasligi qayd etib o‘tish lozim[4].

Ushbu akt talablari buzilganda, belgilangan jarimalarga to‘xtalib o‘tsak. Taqiqlangan amaliyot uchun 35 million yevrogacha yoki kompaniyaning jami yillik aylanmasining 7 foizigacha, boshqa buzilishlar uchun 15 million yevrogacha yoki 3 foizgacha jarima belgilangan. Qonun chet el kompaniyalariga ham qo‘llanadi: agar tizim natijasi YeI hududida ishlatilsa, ishlab chiquvchining qayerda joylashgani ahamiyatsiz deb topiladi va reglament jarimalari qo‘llaniladi. Aynan shu qoida tufayli Reglament global ta’sirga ega bo‘ldi — bu hodisa adabiyotlarda “Bryussel effekti” deb ataladi[5].

Shu bilan birga, Reglamentning amaliyotdagi tatbiqi og‘ir kechmoqda. Yevropa Ittifoqiga a’zo davlatlarda nazorat organlari o‘z vaqtida tayinlanmadi, muvofiqlikni tekshirish uchun zarur texnik standartlar tayyor bo‘lmadi. Natijada 2026-yil yozida qabul qilingan tuzatishlar bilan yuqori xavfli tizimlarga oid talablarni bajarish muddati 2027-yil dekabrga ko‘chirildi[6]. Bu — qonun matnini yozish uni amaliyotda tatbiq etishdan osonroq ekanini ko‘rsatuvchi yaqqol misol.

2. Janubiy Koreya: yumshoq talablar va rag‘batlantiruvchi yo‘l

Koreyaning Ramka qonuni 2026-yil 22-yanvardan amal qilmoqda va yaxlit SI qonuni qabul qilgan ikkinchi yirik davlat tajribasi sanaladi[7]. Uning YeI hujjatidan farqi birinchi qarashdayoq seziladi: matnning katta qismi cheklovlarga emas, sohani rivojlantirishga bag‘ishlangan. Asosiy maqsad SI yordamida hisoblash mashinalari, katta ma’lumotlar bazasi, kadrlar tayyorlash, kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash bo‘lgan.

Qonun ikki toifadagi tizimlarga alohida talab qo‘ygan. Birinchisi — “yuqori ta’sirli SI”, ya’ni inson hayoti, xavfsizligi yoki asosiy huquqlariga jiddiy ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan tizimlar. Bunday sohalar ro‘yxati qonunda keltirilgan: energiya ta’minoti, ichimlik suvi ishlab chiqarish, tibbiy xizmatlar va tibbiy buyumlar, yadro inshootlari xavfsizligi, jinoyat tergovida biometrik ma’lumotlarni tahlil qilish, ishga qabul qilish va kredit baholash, transport, davlat organlarining fuqarolarga taalluqli qarorlari hamda maktabda o‘quvchilarni baholash. Yuqori ta’sirli sun’iy intellekt tizimlarini taqdim etuvchi tashkilotlar zimmasiga beshta asosiy

---

[4] Malgieri G., Comandé G. Why a Right to Legibility of Automated Decision-Making Exists in the General Data Protection Regulation // International Data Privacy Law. 2020. Vol. 10, No. 1. P. 24–34; shuningdek qarang: Wachter S., Mittelstadt B., Russell C. Why fairness cannot be automated: Bridging the gap between EU non-discrimination law and AI // Computer Law & Security Review. 2021. Vol. 41. Art. 105567.

[5] Bradford A. The Brussels Effect: How the European Union Rules the World. Oxford University Press, 2020; qarama-qarshi qarash uchun qarang: Brussels effect or experimentalism? The EU AI Act and global standard-setting // Internet Policy Review. — https://policyreview.info/articles/analysis/brussels-effect-or-experimentalism

[6] Regulation (EU) 2026/1744 (Digital Omnibus on AI), OJ, 24.07.2026. Qarang: Artificial Intelligence: Council gives final green light to simplify and streamline rules. Council of the EU, 29.06.2026. — https://www.consilium.europa.eu/en/press/press-releases/2026/06/29/artificial-intelligence-council-gives-final-green-light-to-simplify-and-streamline-rules/

[7] Framework Act on the Development of Artificial Intelligence and Establishment of Trust (Act No. 20676, 21.01.2025; 22.01.2026 dan kuchda). Ingliz tilidagi tarjima: CSET, Georgetown University, 2025. — https://cset.georgetown.edu/wp-content/uploads/t0625_south_korea_ai_law_EN.pdf; qarang shuningdek: South Korea: Comprehensive AI Legal Framework Takes Effect. Library of Congress, Global Legal Monitor, 20.02.2026.

majburiyat yuklatiladi. Xususan, ular xavflarni boshqarish rejasini tizimli yuritishi, texnik imkoniyatlar doirasida tizim natijalarining tushuntiriluvchanligini (explainability) ta’minlashi — ya’ni qaror qanday mezonlarga asoslangani va o‘qitish uchun qanday ma’lumotlar ishlatilganini ochiqlashi, foydalanuvchilarni muhofaza qilish choralarini ko‘rishi, inson nazoratini (human oversight) ta’minlashi hamda amalga oshirilgan barcha tadbirlarni hujjatlashtirib borishi shart. Mazkur mexanizmda muhim huquqiy yengillik nazarda tutilgan: agar tashkilot boshqa qonunchilik hujjatlari doirasida shunga o‘xshash xavfsizlik va nazorat choralarini allaqachon joriy etgan bo‘lsa, ushbu majburiyatlar bajarilgan deb e’tirof etiladi. Bu qoida ortiqcha ma’muriy yuklamani kamaytirish va bir xil jarayonlarning takrorlanishiga yo‘l qo‘ymaslik tamoyiliga asoslanadi.

Koreya qonunchiligi tajribasiga muvofiq, ikkinchi toifaga o‘qitish jarayoni uchun o‘ta yuqori hisoblash quvvati (elektr energiyasi) talab qilinadigan eng yirik modellar kiradi. Bunday tizimlar uchun tegishli xavfsizlik choralarini ko‘rish hamda baholash natijalarini vakolatli vazirlikka taqdim etish majburiyati yuklangan. Qonunchilikda belgilangan resurs chegarasi yetarlicha yuqori bo‘lgani sababli amaliyotda bu talablar asosan global texnologik gigantlarga tatbiq etiladi hamda shu yo‘l bilan milliy kompaniyalar ortiqcha ma’muriy va moliyaviy yuklamadan ozod qilinadi.

Shuningdek, shaffoflik mezonlari uch bosqichli tizim orqali ta’minlanadi: birinchidan, yuqori ta’sirli yoki generativ SI ishlatilayotgani haqida foydalanuvchi oldindan ogohlantiriladi; ikkinchidan, olingan natijaning sun’iy yaratilganligi ko‘rsatiladi; uchinchidan, haqiqiysidan farqlash qiyin bo‘lgan sintetik audio, tasvir va videolar alohida markirovka qilinadi.

Qonunchilikning eng e’tiborga molik jihatlaridan biri uning ijrosini ta’minlash, ya’ni huquqiy majburlov mexanizmidir. Qonunda ma’muriy jarima sanksiyasi nazarda tutilgan bo‘lib, uning yuqori chegarasi 30 million von (taxminan 22 ming AQSh dollari) miqdorida belgilangan. Mazkur jarima faqat uchta muayyan holatda — foydalanuvchini ogohlantirish majburiyati bajarilmaganda, mamlakat hududida vakolatli vakil tayinlanmaganda hamda vazirlik ko‘rsatmasi bajarilmaganda qo‘llaniladi. Yana bir muhim jihati shundaki, xavflarni boshqarish yoki tizim natijalarini tushuntirish majburiyatlarini buzganlik uchun bevosita jarima nazarda tutilmagan. Buning o‘rniga bosqichma-bosqich nazorat mexanizmi amal qiladi: nazorat qiluvchi vazirlik avval tekshiruv o‘tkazadi, so‘ngra aniqlangan huquqbuzarlikni bartaraf etish bo‘yicha majburiy ko‘rsatma beradi hamda faqat ushbu ko‘rsatma bajarilmagan taqdirdagina ma’muriy jarima qo‘llash chorasi ko‘riladi[8].

3. AQSh shtatlari: uchta turli yechim

AQShda sun’iy intellektni tartibga soluvchi yaxlit federal qonunchilik mavjud emasligi sababli asosiy regulyativ tashabbuslar shtatlar darajasida namoyon bo‘lmoqda. Shtatlar amaliyotida ushbu sohani huquqiy tartibga solishning bir-biridan tubdan farq qiluvchi uch xilyondashuvi shakllandi.

Xususan, Kolorado shtati o‘z qonunchiligida “sun’iy intellekt” atamasidan voz kechib, tartibga solish obyekti sifatida **“avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish texnologiyasi”**

[8] One Law Sets South Korea’s AI Policy — and One Weak Link Could Break It. ITIF, 29.09.2025. — https://itif.org/publications/2025/09/29/one-law-sets-south-koreas-ai-policy-one-weak-link-could-break-it/

tushunchasini kiritdi. Mazkur yondashuvga ko‘ra, shaxsiy ma’lumotlarni qayta ishlash orqali inson haqida muayyan qaror qabul qilishda foydalaniladigan natijalarni (baho, reyting yoki tavsiyalarni) shakllantiruvchi har qanday texnologik vosita avtomatlashtirilgan tizim sifatida e’tirof etiladi. Bunda huquqiy majburiyatlar va nazorat mexanizmlari barcha holatlarda emas, balki shaxs uchun ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan sohalarda — ya’ni ta’lim, bandlik, kreditlash, uy-joy ta’minoti, sug‘urta, tibbiy xizmat ko‘rsatish hamda davlat xizmatlarini ko‘rsatish bilan bog‘liq muhim qarorlarni qabul qilish jarayonlaridagina yuzaga keladi[9].

Ushbu yondashuvning asosiy afzalligi shundaki, qonuniy tartibga solish muayyan texnologiya turiga (neyron tarmoqlari yoki oddiy statistik modellarga) bog‘lanmaydi. Bunda asosiy e’tibor qo‘llanilgan algoritmga emas, balki tizimning shaxs taqdiriga daxldor qarorlarga ko‘rsatadigan amaliy ta’siriga qaratiladi. Natijada, qonunchilik texnologik taraqqiyot sharoitida ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmaydigan moslashuvchanlikka ega bo‘ladi. Shu bilan birga, antivirus dasturlari, spam-filtrlar va kalkulyatorlar kabi oddiy texnik vositalar ushbu regulyatsiya doirasidan chiqarilgan.

Kolorado modelining muhim huquqiy yutug‘i fuqarolarning shaxsiy huquqlarini kafolatlashidadir. Unga ko‘ra, shaxslarga uchta asosiy huquq beriladi:

1. Qaror qabul qilishda avtomatlashtirilgan texnologiyadan foydalanilayotgani haqida oldindan xabardor qilinish;

2. Salbiy qaror qabul qilingan taqdirda 30 kun muddatda tushunarli tilda asoslantirilgan tushuntirish olish;

3. Qarorning inson tomonidan qayta ko‘rib chiqilishini talab qilish (shu bilan birga, o‘zi haqidagi ma’lumotlar bilan tanishish va xatoliklarni tuzatish).

Mazkur huquqlar shunchaki deklarativ xarakterga ega bo‘lmay, aniq protsessual muddatlar bilan mustahkamlangan majburiyatlar shaklida belgilangan[10].

Kaliforniya shtatida qabul qilingan qonunchilik esa kundalik foydalaniladigan oddiy tizimlarga emas, balki eng ilg‘or va yirik SI modellarini (frontier models) tartibga solishga qaratilgan. Bunday modellarni ishlab chiquvchi kompaniyalar zimmasiga xavfsizlik siyosatini ochiq e’lon qilish, har bir yangi modelni amaliyotga joriy etishdan oldin baholash hisobotlarini chop etish hamda xavfsizlik hodisasi yuz berganda bu haqida 15 kun ichida vakolatli davlat organini xabardor qilish kabi majburiyatlar yuklangan. Qonunchilikda, shuningdek, xavfsizlik muammolari bo‘yicha xabar bergan xodimlarni (whistleblowers) ishdan bo‘shatish va boshqa tazyiqlardan himoya qiluvchi normativ kafolatlar nazarda tutilgan bo‘lib, belgilangan majburiyatlarni buzganlik uchun har bir holat bo‘yicha 1 million dollargacha ma’muriy jarima sanksiyasi belgilangan[11].

---

[9] Senate Bill 26-189 “Automated Decision-Making Technology (Colorado, 14.05.2026; 01.01.2027 dan kuchga kiradi). — https://leg.colorado.gov/bills/sb26-189

[10] Colorado Replaces Landmark AI Act: An Overview of the New SB 26-189 Framework. Finnegan, 27.05.2026. — https://www.finnegan.com/en/insights/articles/colorado-replaces-landmark-ai-act-an-overview-of-the-new-sb-26-189-framework.html

[11] Senate Bill 53 “Transparency in Frontier Artificial Intelligence Act” (California, 29.09.2025). Qarang: California Enacts SB 53, Setting New Standards for Frontier AI Safety Disclosures. Jones Day, 10.2025.

Illinoys shtati to‘xtaladigan bo‘lsak, u alohida SI qonuni umuman qabul qilmadi. Buning o‘rniga amaldagi Inson huquqlari to‘g‘risidagi qonunga qo‘shimcha kiritildi va ishga qabul qilishda SI dan foydalanish natijasida kamsitishga yo‘l qo‘yish shu qonunning buzilishi deb belgilandi[12]. Ya’ni na yangi hujjat, na yangi nazorat organi yaratildi — bunday nizolar avvaldan mavjud tartibda, mehnat va kamsitishga qarshi qonunchilik doirasida ko‘rib chiqiladi. Bu usulning afzalligi tezligi va arzonligida: qonunchilikka bir necha jumla qo‘shiladi, qolgan hammasi allaqachon ishlab turgan mexanizm hisobiga hal bo‘ladi.

4. Yaponiya va Xitoy: ikki qarama-qarshi tanlov

Yaponiyada 2025-yilda qabul qilingan sun’iy intellekt bo‘yicha birinchi qonunchilik hujjati qat’iy taqiqlar, litsenziyalash hamda ma’muriy va moliyaviy jarimalarni nazarda tutmaydigan o‘ziga xos rag‘batlantiruvchi yondashuvga asoslangan. Qonunda sun’iy intellekt atamasiga keng tushuncha berilib, u insonning idrok etish, xulosa chiqarish hamda mulohaza yuritish qobiliyatlarini sun’iy usulda takrorlovchi texnologiya sifatida ta’riflangan. Mazkur hujjat, eng avvalo, davlat organlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari va tadbirkorlik subyektlarining umumiy vazifalarini va hamkorlik yo‘nalishlarini belgilab beradi. Sohaga oid siyosatni muvofiqlashtirish maqsadida Bosh vazir raisligida Sun’iy intellekt bo‘yicha strategik shtab tashkil etilishi, sohaga oid Asosiy reja tasdiqlanishi hamda vazirliklar tomonidan tavsiyaviy xarakterdagi yo‘riqnomalar ishlab chiqilishi nazarda tutilgan[13].

Ushbu qonunchilikning muhimligi shundaki, u amaldagi huquqiy bo‘shliqlarni bevosita to‘ldirishga emas, balki kelgusidagi institutsional va konseptual bazani shakllantirishga qaratilgan. SI texnologiyalari bilan bog‘liq muayyan huquqiy nizolar Yaponiyaning shaxsiy ma’lumotlarni muhofaza qilish, mualliflik huquqi va mahsulot uchun javobgarlikka oid amaldagi qonunchiligi doirasida hal etilaveradi. Jahon bozoridagi texnologik poyganing hozirgi bosqichida Yaponiya qonunchisi birinchi galda qat’iy cheklovlar kiritishdan ko‘ra, milliy va xalqaro darajadagi innovatsiyalar yordamida sohani har tomonlama rag‘batlantirish strategiyasini ustuvor deb topdi.

Xitoy Xalq Respublikasi sun’iy intellekt (SI) sohasi bo‘yicha yaxlit qonun qabul qilish o‘rniga, izchil chiqarilgan ma’muriy reglamentlar orqali qat’iy huquqiy rejimni shakllantirdi. Ushbu regulyativ tizimning bazaviy hujjati sifatida 2023-yildan kuchga kirgan “Generativ sun’iy intellekt xizmatlarini boshqarish bo‘yicha vaqtinchalik chora-tadbirlar” e’tirof etiladi. Mazkur idoraviy hujjatning tatbiq doirasi o‘ziga xos xarakterga ega bo‘lib, u faqat keng jamoatchilikka ko‘rsatiladigan ommaviy xizmatlarni qamrab oladi hamda tashkilotlarning ichki ilmiy-tadqiqot va texnologik ishlanmalariga taalluqli hisoblanmaydi. Boshqacha aytganda, Xitoy qonunchiligi texnologik mahsulotning o‘zini emas, balki uning ommaviy xizmat sifatida jamiyatga taqdim etilish jarayonini tartibga soladi[14].

---

[12] Illinois House Bill 3773 — Illinois Human Rights Act ga kiritilgan qo‘shimchalar (01.01.2026 dan kuchda). Qarang: State AI laws under federal scrutiny: Key takeaways. White & Case LLP, 2026.

[13] Act on Promotion of Research and Development, and Utilization of Artificial Intelligence-related Technology (Act No. 53 of 2025, Japan). — https://www.japaneselawtranslation.go.jp/en/laws/view/5066/en

[14] Interim Measures for the Management of Generative Artificial Intelligence Services (Xitoy Xalq Respublikasi, 15.08.2023 dan kuchda). Ingliz tilidagi tarjima: China Law Translate. —

Hujjatda belgilangan normativ talablar bir qator tizimli majburiyatlarni o‘z ichiga oladi. Unga ko‘ra, SI modellarini o‘qitishda foydalaniladigan ma’lumotlar faqat qonuniy manbalardan olinishi, o‘zgalarning intellektual mulk huquqlarini buzmasligi hamda shaxsiy ma’lumotlar qamrab olinganda subyektning roziligi bilan qayta ishlanishi shart. Hujjatning eng jiddiy normasi shundaki, xizmat ko‘rsatuvchi subyekt sun’iy intellekt tomonidan yaratilgan kontent uchun uni bevosita ishlab chiqargan shaxs sifatida to‘liq huquqiy javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi. Shuningdek, voyaga yetmagan foydalanuvchilarning raqamli qaramligi va xizmatga me’yordan ortiq bog‘lanib qolishining oldini olish choralari ko‘rilishi, foydalanuvchi kiritgan ma’lumotlarning noqonuniy saqlanishi hamda uchinchi shaxslarga berilishi qat’iyan taqiqlanadi. Noqonuniy kontent aniqlangan taqdirda, tashkilot uni tarqatishni zudlik bilan to‘xtatishi, model algoritmlariga tegishli tuzatishlar kiritishi va vakolatli organga xabar berishi lozim. Jamoatchilik fikriga hamda ijtimoiy munosabatlarga ta’sir o‘tkazish imkoniyatiga ega bo‘lgan xizmatlar esa amaliyotga joriy etilishidan oldin majburiy xavfsizlik baholashidan o‘tishi va algoritmlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishi (algorithmic filing) shart.

Xitoyda 2025-yil sentabr oyidan e’tiboran sun’iy intellekt yordamida yaratilgan kontentni markirovka qilish bo‘yicha alohida qoidalar hamda ularni qo‘llab-quvvatlovchi majburiy davlat standarti amal qilmoqda. Mazkur normativ tizim kontentni ikki bosqichli tartibda belgilashni talab etadi: birinchidan, foydalanuvchi bevosita ko‘ra oladigan ochiq vizual belgi; ikkinchidan, faylning metama’lumotlariga joylashtiriladigan va kontent muallifligini hamda kelib chiqishini ko‘rsatuvchi yashirin raqamli belgi[15]. Metama’lumotlar qatlami alohida amaliy ahamiyatga ega, chunki vizual belgilarni kesib tashlash nisbatan oson bo‘lsa-da, fayl tuzilmasidagi yashirin yozuvlarni o‘chirish yoki o‘zgartirish texnik jihatdan ancha murakkab. Shuningdek, raqamli platformalar zimmasiga metama’lumotlarni majburiy tekshirish, foydalanuvchilar sun’iy kontent yuklaganda bu haqida e’lon qilish hamda belgilarni o‘chirish va soxtalashtirishni taqiqlash majburiyati yuklatilgan. Hozirgi kunda ushbu mexanizm sintetik kontentni markirovka qilish bo‘yicha jahondagi eng batafsil va kompleks regulyativ tizim hisoblanadi.

Xitoy reglamentlarida qoidabuzarliklar uchun maxsus moliyaviy jarimalar bevosita nazarda tutilmagan bo‘lsa-da, ularning ijrosini ta’minlovchi samarali ma’muriy va protsessual mexanizmlar joriy etilgan. Qoidabuzarlik aniqlangan taqdirda, vakolatli davlat organi tomonidan rasmiy ogohlantirish beriladi, kamchiliklarni bartaraf etish uchun aniq muddat belgilanadi hamda ushbu talablar bajarilmaganda xizmat ko‘rsatish faoliyati batamom to‘xtatib qo‘yiladi. Amaliyotda eng ta’sirchan nazorat dastagi sifatida dastlabki davlat ro‘yxatidan o‘tkazish talabi borligi hisoblanadi. Chunki ushbu tartibdan o‘tmasdan turib xizmatni ommaga taqdim etishning huquqiy va texnik imkoni mavjud emas.

https://www.chinalawtranslate.com/en/generative-ai-interim/

[15] Measures for Labelling AI-Generated and Synthetic Content (XXR, 01.09.2025) va GB 45438-2025 majburiy milliy standarti. Qarang: China Releases New Labeling Requirements for AI-Generated Content. Covington & Burling, 18.03.2025. — https://www.insideprivacy.com/international/china/china-releases-new-labeling-requirements-for-ai-generated-content/

5. Yondashuvlarni qiyoslash

SI tartibga solish bo‘yicha xalqaro tajriba tahlil qilinganda, turli mamlakatlar yondashuvida beshta asosiy farqli jihat ko‘zga tashlanadi.

Birinchi va eng muhim farq — har bir davlat aynan nimani nazorat qilishni tanlaganidadir. Masalan, YeI SI mahsulotining o‘zi va uning xavf darajasini, Kolorado shtati SI qabul qilayotgan qarorlar funksiyasini, Kaliforniya modelning texnik quvvatini, Xitoy ommaviy xizmatlar va ular yaratadigan kontentni, Yaponiya esa davlatning umumiy SI siyosatini nazorat qiladi.

Ikkinchi farq - nazorat mexanizmining vaqtiga taalluqli. YeI va Xitoyda dastlabki nazorat o‘rnatilgan: SI bozorga chiqishdan oldin majburiy baholash, sertifikatlash hamda ro‘yxatdan o‘tish jarayonlaridan o‘tishi shart. Bu esa davlatdan maxsus ekspertiza va laboratoriya infratuzilmasini talab qiladi. Janubiy Koreyada tizimni tasniflashni kompaniyaning o‘ziga topshirgan bo‘lsa, Koloradoda dastlabki nazorat umuman yo‘q — qoidabuzarliklar faqat keyinchalik, ya’ni fuqarolarning shikoyatlari va davlat organlari tekshiruvlari orqali aniqlanadi.

Uchinchi farq shaxs huquqlarining taminlanishida ko‘rinadi. Kolorado modeli bu borada eng ilg‘or hisoblanib, fuqarolarga axborot olish, qarorlar bo‘yicha tushuntirish talab qilish hamda inson nazoratini yo‘lga qo‘yish huquqlarini aniq muddatlar bilan kafolatlaydi. YeI shikoyat qilish va tushuntirish olish huquqini taqdim etadi. Koreyada tushuntirish berish shaxsning huquqi emas, balki tashkilotning majburiyati sifatida belgilangan.

To‘rtinchi farq javobgarlik va ta’sir choralariga taalluqli bo‘lib, bu yerda qonun samaradorligini jarima miqdori emas, balki bozorga kirish shartlari belgilaydi. Xitoyda maxsus jarimalar bo‘lmasa-da, ro‘yxatdan o‘tmasdan bozorga kirishning o‘zi imkonsiz. Koreya ramziy jarimalar o‘rniga davlat xaridlarida ustunlik berish orqali kompaniyalarni rag‘batlantiradi. YeI modelida esa katta jarimalar nazarda tutilgan bo‘lsa ham, ularni qo‘llovchi maxsus organlar hali to‘liq ishga tushmagan.

Beshinchi jihatda esa barcha davlatlar tanlagan yo‘l o‘rtasida o‘xshashlik kuzatiladi: har bir modelda shaffoflik talabi mavjud. Ya’ni foydalanuvchi SI bilan muloqot qilayotganini bilishi hamda sun’iy yaratilgan kontent majburiy belgilanishi (markirovka qilinishi) kerak. Ushbu mezon murakkab texnik infratuzilmani talab qilmasligi va nazorat qilish sodda bo‘lgani sababli yangi qonunchilik bazasini shakllantirishda eng maqbul boshlang‘ich nuqta bo‘lib xizmat qilib kelmoqda.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan tahlilni xulosa qiladigan bo‘lsak, SIni tartibga solishda barcha uchun birdek mos keladigan yagona model mavjud emas. Har bir mamlakat o‘zining iqtisodiy holati, texnologik salohiyati va ma’muriy nazorat imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda o‘ziga mos yechimni tanlagan. Shunga qaramay, barcha huquqiy yondashuvlarni birlashtiruvchi hamda milliy qonunchilikni rivojlantirishda tayanch bo‘la oladigan uchta universal elementni keltirib o‘tamiz:

- Shaxsning qaror qabul qilishda yoki muloqotda SI ishtirok etayotganidan xabardor qilinishi (shaffoflik);
- Inson nazoratining saqlanishi (muhim qarorlarda so‘nggi so‘zni inson aytishi);
- Sun’iy yaratilgan sintetik kontentning majburiy markirovka qilinishi.

Mazkur uchta asosiy ustun sohadagi mavjud xavf-xatarlarni nazorat qilish hamda kelgusida zamonaviy qonunchilik bazasini shakllantirishda eng ishonchli poydevor vazifasini bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Regulation (EU) 2024/1689 (Artificial Intelligence Act). OJ L, 2024/1689, 12.7.2024.
2. Regulation (EU) 2026/1744 (Digital Omnibus on AI). OJ, 24.07.2026.
3. Framework Act on the Development of Artificial Intelligence and Establishment of Trust (Act No. 20676, Republic of Korea, 2025).
4. Act on Promotion of Research and Development, and Utilization of Artificial Intelligence-related Technology (Act No. 53 of 2025, Japan).
5. Interim Measures for the Management of Generative Artificial Intelligence Services (PRC, 2023); Measures for Labelling AI-Generated and Synthetic Content (PRC, 2025); GB 45438-2025.
6. Senate Bill 26-189 (Colorado, 2026); Senate Bill 53 (California, 2025); House Bill 3773 (Illinois).
7. Bradford A. The Brussels Effect: How the European Union Rules the World. — Oxford University Press, 2020.
8. Veale M., Zuiderveen Borgesius F. Demystifying the Draft EU Artificial Intelligence Act // Computer Law Review International. 2021. Vol. 22, No. 4. P. 97–112.
9. Kaminski M.E., Malgieri G. Algorithmic Impact Assessments under the GDPR // International Data Privacy Law. 2021. Vol. 11, No. 2. P. 125–159.
10. Malgieri G., Comandé G. Why a Right to Legibility of Automated Decision-Making Exists in the GDPR // International Data Privacy Law. 2020. Vol. 10, No. 1. P. 24–34.
11. Wachter S., Mittelstadt B., Russell C. Why fairness cannot be automated // Computer Law & Security Review. 2021. Vol. 41. Art. 105567.
12. One Law Sets South Korea’s AI Policy — and One Weak Link Could Break It. ITIF, 2025.
13. South Korea: Comprehensive AI Legal Framework Takes Effect. Library of Congress, Global Legal Monitor, 2026.